



TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Matematika va ta'lilda axborot texnologiyalari kafedrasи

**“TA’LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI RESURSLARIDAN
FOYDALANISH ISTIQBOLLARI”**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari to'plami**

2023-yil 30-may Toshkent, O'zbekiston



Toshkent – 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**"TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI RESURSLARIDAN
FOYDALANISH ISTIQBOLLARI"**

respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya

(2023-yil 30-may, Toshkent, O'zbekiston)



**ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ
ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ
РЕСУРСОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ**

республиканская научно-практическая конференция

(30 мая 2023 года, Ташкент, Узбекистан)



**PROSPECTS FOR THE USE OF MODERN
INFORMATION TECHNOLOGY RESOURCES
IN THE EDUCATION SYSTEM**

republican scientific-practical conference

(May 30, 2023, Tashkent, Uzbekistan)

kengaytinshda va uni o'zgartirishda ko'rish mumkin. Deyarli barcha tadqiqotchilar kompyuter texnologiyalari yordamida ta'lif samaradorligini oshirish isbotlangan

Muhandislik grafikasi fanlarida amaliy dasturiy vositalardan foydalanib, pedagogik dasturiy vositalar yaratish, ular yordamida elektron ta'lif muhitini hosil qilinadi.

Buning natijasida muhandislik grafikasi fanlari o'qituvchilarining ish faoliyatiga bir muncha yengillik yaratadi va dars jarayoni ya'nada sifatli ko'rsatkichga oshadi.

Xulosा

1.Ta'lif jarayonida kompyuterlardan foydalanish usullan va texnologiyalari, ta'lifni axborotlashtirishning psixologik-pedagogik jihatlari masalalari ishlab chiqish lozim

2. Tegishli dasturiy-metodik ta'minoti (mavzuga yo'naltirilgan o'quv muhitlari, kompyuter o'qitishtizimlari, pedagogik dasturiy ta'minot) faol Ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir

3. ta'lifni rivojlantirish konsepsiysi doirasida kompyuterli modellashtirish texnologiya tarzini rivojlantirish yo'nalishi alohida o'ringa eqadir.

4 O'qrtuvchilar va uslubchilarining tadqiqotlar o'quv jarayonida kompyuterning ijobiyligi rolini isbotlab bergan Lekin chizmachilik fanini o'rganishda kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalanib dars samaradorligini oshirish va o'qitish jarayonini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida qolmoqda Shuni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sod Farmoni. – "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2017 y., 6-son, 70-modda.1. Murodov Sh.K va boshkalar, (2020). Chizma geometriya. Oliy pedagogika o'quv yurtlari uchun darslik, Toshkent, "Iqtisod-moliya".

2.Saydaliyev S.S. "Chizmachilik" o'quv metodik qo'llanman, Toshkent Sano-standart bosmaxonasi 2013 y

3.Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.,2003.

4.Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

5.Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

TA'LIM JARAYONIDA FANLARNI O'QITISHDA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Ilmiy raxbar: **Umarova Fotima Abduraximovna** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti „Texnologik ta'lif metodikasi” kafedrasini dotsenti, p.f.f.d., PhD

To`xtasinova Shodiyaxon Javlonbekovna – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Texnologik ta'lif yo'nalishi talabasi.

Zamonaviy jamiyatni va ayniqsa ta'lifni axborotlashtirish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirish va ommaviy tarqatish jarayonlari bilan ajralib turadi. Ta'lif sohasida ushbu texnologiyalar ma'lumot uzatish va o'qituvchi va talabaning zamonaviy ochiq va masofadan turib o'qitish tizimlarida o'zaro ta'sirini ta'minlash uchun faol foydalilmoqda. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'z sohasi bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi, balki o'z kasbiy faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, raqamli ta'lif muhitini yaratish bo'yicha samarali ish olib borayotgan ilg'or davlatlar, mintaqalar ta'limning yuqori sifat natijalarini

ko'rsatmoqda. Shu bois O'zbekiston ham xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganib chiqib, o'z taraqqiyoti yo'lida ildam olg'a qadam tashlashd a davom etmoqda. [1]

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda ta'lim oluvchilarning individual shaxs xususiyatlarini, ularning ta'lim olish uslublarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Har bir talaba ma'lumotni turli axborot qabul qilish kanallari orqali idrok etadi. Lekin, mazkur kanallardan qaysidir biri ko'proq rivojlanganligi sababli ta'lim oluvchining axborotni aynan o'sha kanal orqali yaxshiroq qabul qilishi va osonroq o'zlashtirishi fanga ma'lum [2].

Psixologiya sohasi mutaxassislari voqelikni idrok etish xususiyatlariga ko'ra ta'lim oluvchilarni shartli ravishda 4 toifaga: vizual, audial, kinestetik va diskretik kabi guruhlarga bo'lib o'rganishadi. Aksariyat talabalar tashqi dunyoni idrok etishda ko'rganlariga ishonadilar. Soha mutaxassislarining tadqiqot natijalariga ko'ra, talaba ko'rish orqalima'lumotlarning qariyb 88%ini idrok etadi. "1000 marta eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rish yaxshidir" degan ibora mazkur tip vakillarining shiori deb aytish o'rinnlidir. Vizuallar –tasvir va obrazlar orqali dunyoni anglaydiganlardir [2].

Yangi axborot texnologiyalari fan va ta'limni to'plangan bilimlarni yetkazish, ularni to'ldirish va qayta baholash kabi yanada yaqin va samarali kanallari bilan bog'lashga imkon beradi. Bugungi kunda fan – bu ta'lim tizimini rivojlantirish asosiy, ustun turuvchi vositasidir. Bu har doim ham bo'limgan, ilg'or axborot texnologiyasi ta'lim tizimida fanning ahamiyatini o'zgartirdi. Jamiyat faqat fanning o'zi rivojlanishi bilan emas, balki ta'lim va o'qitish tizimi bilan ham bog'liq yangi ilmiy tuzilishni yaratadi.

Kostyum dizayni ta'lim yo'nalishlarida mutaxasislik fanlarini tashkil etishda olib borgan kuzatuvlarimiz va tadqiqotlarimiz asosida ishlab chiqqan "SCADEduWeb" mualliflik metodikamizni taklif etdik. Ushbu mualliflik metodikaning har bir bosqichi yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetentliklarni rivojlantirishga xizmat qiladi [3].

Taklif etayotgan ushbu metodimiz bolalar, ayollar va erkaklar ko'yylaklari, bluzkalari, yubka va shim loyixasini yaratish, modellashtirish va tikishni masofadan turib o'qitish uchun mo'ljallangan. Fan doirasida tinglovchiga qulay bo'lgan vaqtida mustaqil o'rganishi uchun bir qancha batafsil videolar, fotosuratlar va matn materiallarini va uslubiy ko'rsatmalarini mujassamlashtirilgan "Talabalarga kiyimlarni "Valentina" dasturiy vositasida loyihalash va modellashtirishni o'rgatish." nomli elektron qo'llanmamiz taklif etilgan. Bajarilgan vazifalarni tushuntirish, maslahatlar berish va tekshirish uchun fan o'qituvchisi bilan shaxsiy ravishda yozma onlayn muloqot qilish uchun vaqt ajratilgan. Bu yerda tinglovchi o'chovlarni qanday olishni, qo'shimchalarni aniq tanlashni va asos andozani qurishni o'rganadi. Bundan tashqari yuqori sifatli andozalarni qanday yaratishini va modellashtirishni, tikuvchilik hunarmandchiligi asoslarini – buyum qirqimlariga ishlov berishni, tikuv uskunalari va vositalarini to'g'ri tanlashni, tikishda paydo bo'ladigan nuqsonlarni tuzatishni o'rganish mumkin [4].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim tizimida AKTni qo'llash, "SCADEduWeb" mualliflik metodikasi orqali dars mashg'ulotlarini tashkil etish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara beradi. Shunig uchun bu boradagi nazariy, uslubiy va boshqa jihatlarni davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarga mo'ljallangan ko'nikmaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu ularga ta'lim maskanlarida malakali, professional shaxsga aylanish imkonini beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, zarur bilimlarni sotish va sotib olish uning tovarga aylanganligini bildiradi. Chunki, bilimlarning muntazam ravishda yangilanib turilishi va ularni ish kuchi tomonidan qo'llanilishi ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyotning kalitidir. Bilim berishga ixtisoslashgan oliy ta'lim, o'rta maxsus o'quv yurtlari va maktablarda innovatsiyalar keng ko'lama qo'llanilishi zarur. Ya'ni, masofaviy o'qitishni xar bir bosqichga, ya'ni bog'cha, maktab, professional ta'limi va oliy ta'limga tatbiq etish, yangi fanlar va texnologiyalarni, "SCADEduWeb" mualliflik metodikasini qo'llash kabilar shular jumlasidandir. Ushbu jarayonning ommaviy lashishi natijasida, ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish va bozor bilan aloqasi yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari turli vaziyatlarga ko'ra ta'lim muassasalariga borib ta'lim olish imkoniyati bo'limgan

yoshlarni bilim olishlari va kasb hunarni egallashlariga zamin yaratadi. Shu bilan bir qatorda fanni o'zlashtirish va ta'lif samaradorligiga erishish ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Umarov, Z.Umarova, F.Umarova – Tashkent 2020 yil «Raqamli O'zbekiston: raqamli ta'lif muhiti va raqamli iqtisodiyot» Raqamli iqtisodiyot: yangi O'zbekistonni yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari orqali rivojlantirishning yangi bosqichi mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, pp. 46-48.
2. Z.A.Umarova / Mustaqil ta'lifni tashkil etishda talabalarning individual shaxs xususiyatlarini tahlil etish / JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-12 (30-September)
3. Fotima Abdurakhimovna Umarova / The Importance of Learning CAD / CAM FOR STUDENT FASHION DESIGNERS IN UNIVERSITIES. / ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI BEKE 2022/1
4. Фотима Абдурахимовна Умарова / [Талабаларга кийимларни лойихалаш ва моделлаштиришни ўргатишида ахборот-коммуникация технология воситаларидан фойдаланиш орқали таълим самарадорлигига эришиш](#) / Современное образование (Узбекистан) 2021
5. Khusan Abdurakhimovich Umarov / [Analysis of Approaches to the Formation of Professional Readiness of Students in Uzbekistan \(On the Example of Future Teachers\)](#) / Annals of the Romanian Society for Cell Biology 2021/3/6

PEDAGOGIKA IXTISOSLIKLARI TALABALARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA, ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIIYA TEXNOLOGIYALARINI O'RNI

Djurayeva Buvsara Abdumannonovna - T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Bugungi davr faol harakatlar, izlanishlar, tezkor axborotlar, ilg'or texnologiyalar zamonidir. Ayniqsa, bo'lajak tabiiy fanlar (kimyo, biologiya, geografiya va iqtisodiy bilim asoslari va fizika va astronomiya) o'qituvchilaridan alohida mas'uliyat, kuchli bilim, tinimsiz izlanishni talab qiladi. Bu sohada muvaffaqiyat qozonish, tilga tushish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Ammo tinimsiz mehnat o'z samarasini bermasdan qo'ymaydi.

Tafakkur — bu inson ijodiy faolligining yuksak shakli. Shuning uchun talabalarda ijodiy faollik zaminida yotuvchi mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish pedagogika oliy ta'lif muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Zero, mustaqil ijodiy fikr yurituvchi yoshlargina mamlakatimiz kelajagining porloq bo'lishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'sha oladilar.

Ma'lumki, talaba faoliyati butun ta'lif-tarbiya jarayonining asosi hisoblanib, o'qituvchi turli -tuman usullardan foydalangan holda talaba faoliyatini aniq maqsadlar tomon yo'naltirib turadi. Hozirgi kunda ta'lif jarayonida ayniqsa axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan to'liq foydalanishi bilan ifodalanadi.. Pedagogika ixtisosliklari talabalarining zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishslash mediako'nikmasining rivojlanishi natijasida, ularni mediakompetentligi rivojlanadi[1].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez taraqqiy etishi natijasida "mediya" tushunchasi paydo bo'ldi. "Media" tushunchasi lotin tilidan (media, medium so'zidan) olinib,

A.M. Ahmedov	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBGA TAYYORLASHDA AXBOROT KOMPETENTSIYALARING O'RNI.....	177
D.Kh. Fayziyeva, R. Isambayev	
LEVERAGING SOCIAL MEDIA CONTENT FOR COMPUTER SCIENCE EDUCATION: AN INNOVATIVE APPROACH	178
M.A. Xoshimxanova, L.O. Shamsuddinov, X.D. Kurbanbayeva	
AXBOROT KOMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN OLIY TA'LIMDA FOYDALANISH.....	180
G.B. Nafasova	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING MANTIQIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT VA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	182
A.X. Yusupov, L.N. Sangirov	
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA SAMARALI JORIY ETISHDA KOMPYUTER SAVODXONLIGINING O'RNI.	187
D.N. Bo'riboyeva	
MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI AXBOROT-KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O'QITISH.....	190
F.A. Umarova, Sh.J. To'xtasinova	
TA'LIM JARAYONIDA FANLARNI O'QITISHDA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	192
B.A. Djurayeva	
PEDAGOGIKA IXTISOSLIKHLARI TALABALARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA, ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI O'RNI.....	194
E.A. Mo'minov	
INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR FANINI O'QITISHDA VIRTUAL TA'LIM TIZIMIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI.....	196
S.X. Islakov	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	199
F.A. Umarova, X.E. Tohirova	
TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI RESURSLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	201
J.Z. Yunusov	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABALARIDA IJTIMOIY MEDIYA MARKETING BO'LIMINI O'QITISH	203